

**UDK:619:631.1:617.3:616.002:616**

**OTLARDA BO'G'IM KASALLIKLARINING TARQALISHI,  
ETIOPATOGENEZI VA DIAGNOSTIKASI (adabiyotlar sharxi)**

**Axmedov S.M.** - v.f.b.f.d., (PhD) assistent.

**Olimjonov A.Q.** - magistr

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.**

**Annotatsiya:** Maqolada otlarda bo'g'im kasalliklarining tarqalishi, etiopatogenezi va diagnostikasini o'rganishga bag'ishlangan ta'dqiqotchilarning ilmiy adabiyotlari tahlil qilingan. Tadqiqot ishining maqsadlari bo'yicha xulosalar beriladi.

**Аннотация:** В статье проанализирована научная литература исследователей, посвященная изучению распространенности, этиопатогенеза и диагностики заболеваний суставов у лошадей. Даны выводы относительно целей исследовательской работы.

**Summary:** The article analyzes the scientific literature of researchers devoted to the study of prevalence, etiopathogenesis and diagnostics of joint diseases in horses. Conclusions are given regarding the objectives of the research work.

**Kalit so'zlar.** Aseptik, artrit, artroz, paraartrit, endometrit, plevrit, periartikulyar, sinovial, flegmona, nekrobakterioz, aktinomikoz, abscess, palpatsiya, sepsis, osteoskleroz, osteoporoz, petrifikatsiya.

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Oyoq bo'g'imlari patologiyalarini o'rganish, ularning diagnostikasi, davolash va oldini olishga bir qator ilmiy - tekshirish ishlar olib borilgan. Ammo otlarda bo'g'im kasalliklari etiopatogenezinig ko'p masalalari, zamonaviy patomorfologik tashhis qo'yish usullari hali xam yaxshi o'rganilmagan.

**Kirish.** Otlarda oyoq kasalliklari ularni saqlash tartibi buzilganda, transport vositalari yomon jixozlanganda, yo'llar qoniqarsiz holatda bo'lganda va boshqa turli sabablar natijasida kelib chiqadi. Yilqichilikda eksplantatsion shikastlanishning muhim va ahamiyatga ega turi sport otlarining shikastlanishidir. [3; 46 c.] ma'lumotiga ko'ra ot sporti maktabidagi otlarda oyoq kasalliklari har yili 3-4 marotaba, intensiv yuklar yuklanadigan otlarda esa 10 marotabagacha paydo bo'ladi. Sport otlaridagi oyoq kasalliklari orasida artritlar birinchi o'rinni egallab, barcha oyoq kasalliklaridan 44% ni tashkil qiladi va o'tkir yoki surunkali seroz - fibrinoz yallig'lanish shaklida kechadi.

[13; 624 c.] olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, bo'g'im atrof to'qimalari kasalliklari - pay va pay qini (tendinit va tendovaginitlar), paychalar (ligamentit), bu elementlarning suyaklarga birikish joyi (entezopatiya), sinovial xalta (bursitlar), aponevroz va fassiyalarning (aponevrozitlar, fassitlar) yallig'lanishlari bo'lib, ular yallig'lanish yoki degenerativ xarakterga ega bo'ladi, hamda yopiq shikast yoki jarohatlanishdan kelib chiqadi. Bu kasalliklar oqibatida bo'g'imning harakati chegaralanadi va u og'riqli bo'ladi. [12; 18 c.]. Tadqiqotchining ma'lumotlariga

ko'ra, ekssudat tarkibida bo'g'imlar kapsulasining shikastlanishi oqibatida nobud bo'lgan to'qima xujayralarining bo'lishi bilan harakterlandi, ular qon tomir reaksiyasini, tomirlardagi reseptorlarning qo'zg'alishiga olib keladi. Bunday jarayonlar esa, sinovial qobiqlar va ularning so'rg'ichlarida shishlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi

[11; 7-13 c.] Bir qator olimlarning ta'kidlashicha yiringli artrit (Artritis purulenta) – bo'g'imni tashkil qiladigan barcha elementlarning yiringli yallig'lanishidir. Sabablari yiringli sinovitdagiday, ya'ni umumiy patogen omillar katta rol o'ynaydi. Yiringli artritlar birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Birlamchi yiringli artritlar bo'g'imning kirib boruvchi jarohatlarida ikkilamchilar esa bo'g'im to'qimalariga aloxida yiringli o'choqlardan masalan, manqa, yiringli endometrit, sepsis, bo'g'imni o'rab turuvchi to'qimalardan patogen mikroblar limfa va gematogen yo'llar orqali kirib borishidan hosil bo'ladi. Yiringli artritni, yiringli sinovitday stafilokokklar, streptokokklar, ichak tayoqchasi, ko'k-zangori yiring tayoqchasi va boshqa yiring chaqiruvchi qo'zg'atuvchilar tomonidan chaqirilishi takidlangan.

Ko'pchilik yiringli artritlarda mikroblarning assotsiatsiyasi topiladi. Patogenezida yiringli artrit odatda yiringli sinovitning davomi bo'ladi. Ammo bo'g'im tog'aylari va kapsulasini shikastlovchi kirib boradigan jarohatlarda va bo'g'im ichi mikroblar bilan zararlanganda yallig'lanish birdaniga shu to'qimalarda boshlanadi, ya'ni kasallik mustaqil birlamchi bo'ladi. Yiringli sinovitda bo'g'im bo'shlig'ida yiring to'planishi, virulent mikroflora, sinoviyaning pH ni o'zgarishi tog'ay oziqlanishining buzilishiga olib keladi va uning toksinlarga hamda mikroblarga qarshiligini pasaytiradi. Bo'g'im tog'ayi xiralashadi, parchalanadi va yupqalashadi, uning yuzasida g'adir-budur joylar va eroziyalar paydo bo'ladi. Tog'ayning oxaklashgan qavati ko'rinib qoladi va keyinchalik yemirilib ko'chib tushadi natijada suyak yuzasi ochilishi aniqlangan [10; 192 c.].

Tog'ay nuqsonlari paydo bo'lgan joyda suyak tomonidan granulyatsion to'qima o'sa boshlaydi, u ayrim paytlarda qarama-qarshi suyak yuzasi bilan birlashadi va bu holat fibroz yoki suyakli ankiloziga olib keladi. Yiringli ekssudat va mikroblar suyak iligi bo'shlig'iga kirib boradi, qaysikim suyak trabekulalar so'rilishi xisobidan kengayadi, patologik bo'shliqlar rivojlanadi. Bo'shliqdagi yog' to'qimasi o'zgarib, o'rniga yangi biriktiruvchi to'qima o'sadi. O'lgan suyak uchastkalarining ajralish chegaraviy zonasi hosil bo'ladi va bu zonalarda yallig'lanish osteoporozi va osteomiyelitlar rivojlanish takidlangan[9; №6 (74).].

Uzoq vaqt davom etadigan yiringli artritlarda yallig'lanish jarayoni periostga o'tishi natijasida u bilan birlashgan kapsulyar va yordamchi bo'g'im paychalari hamda periartikulyar to'qimalar chandiqlimon yo'g'onlashadi. Yiringli suyaklashuvchi periostit hosil bo'lib ekzostozlar rivojlanadi. Suyak bo'g'im qismlarining yiringli yallig'lanishi yiringli osteoartritga aylanishi mumkin. Suyak asosidagi yiringli yallig'lanish bo'g'im kapsulasida chuqur o'zgarishlarini chaqiradi. Uning sinovial qavati to'lig'icha buziladi. Unda abscesslar rivojlanadi qaysikim ular tashqariga yorilib, oqmalar hosil qiladi. Oqmalardan yoqimsiz hidga ega, ko'pincha quyuq, sarg'ish-zangori yiringli ekssudat ajraladi. Bo'g'im tog'aylari va epifizlar

nekrozga uchraydi, hayvonda septiko-piyemik holat rivojlanadi, umumiy harorat ko'tariladi va otlar progressiv tarzda oriqlaydi [6; 96 c].

Rentgenologik tekshirishlarda bo'g'im tog'aylari va suyak bo'g'im yuzalarining buzilishi, yiringli suyaklashuvchi periostit, suyak sekvestrlari, bo'g'im yorig'ining torayish holatlari topiladi. Bo'g'imning barcha ichki va tashqi atrof to'qimalari zararlanganda panartrit kasalligi hosil bo'ladi. Kasallik juda og'ir kechib, bo'g'imning yuzasida oqmalar hosil bo'ladi. Ajralib chiqadigan yiring sinovial parda zararlanib o'rnini granulyatsion to'qima egallashi bilan tobora quyuqlashib boradi, uning miqdori kamayadi va keyinchalik oqmalaming teshiklari granulyatsion to'qima bilan yopilganda oqmalar umuman yo'qoladi. Rentgenogrammada bo'g'im yorig'i qisqarishidan tashqari osteoporoz, osteoskleroz, suyaklashuvchi periostitlarning manzarasi, ekzostozlar, oxak tuzlaming to'planishi (petrifikatsiya) va peri-paraartikulyar to'qimalarida suyaklashuv xodisalari kuzatiladi [2; 15 c].

Klinik belgilar. Yiringli artrit og'ir kechadi. Hayvon jabrlanadi, tana harorati 1,5-2°C ga oshadi, yiringli - rezorbtiv isitma va ayrim hollarda artrogen sepsis rivojlanadi. Avval bo'g'im kattalashadi va shakli o'zgaradi, bo'g'im divertikullari taranglashadi, bo'g'im qattiq og'riydi, oqsash yuqori darajada bo'ladi. Palpatsiyada flyuktatsiya va mahalliy haroratning ko'tarilishi kuzatiladi. Bo'g'im harakatlari cheklangan bo'ladi. Hayvon oyog'ini bukkan holatda tutib, yerga tuyoqning uchi bilan tayanadi. Harakatlanganda kuchli oqsash kuzatiladi. Oqmadan sinoviya aralash sarg'ish - zangori rangda yiring oqib turadi. Qonni tekshirganda yiringli yallig'lanishning belgilari namoyon bo'ladi: leykotsitoz, neytofiliya, EChT ko'payishi, disproteinemiya. Artritlarning infeksiyon tabiatida odatda jarayonga bir nechta bo'g'imlar qo'shiladi ya'ni poliartrit rivojlanadi. Oqibati. Jarayon yaxshi kechganda va davolash ishlari o'z vaqtida o'tkazilganda hayvon tuzalish mumkin. Ammo bo'g'im to'qimalaridagi turg'un o'zgarishlar bo'lganda bo'g'im qotadi va uning harakatlari chegaralanib qoladi. Otlarda jarayon jadal kechganda kasallik oqibati gumon, sepsis rivojlanib hayvonni o'limiga olib kelishi mumkin [8; 577-584 pp].

[4; 50 c] ta'kidlashicha, o'tkir aseptik sinovitda qonda ko'rinib turadigan o'zgarishlar qayd etilmaydi. Bu hol bo'g'im sohasida yallig'lanish jarayoni tez rivojlanishi va zararlangan to'qimalarda mikroorganizmlar yo'qligi bilan bog'liq. Faqat sinoviyani laborator tekshirganda sezilarli o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

[7; 432 pp] fikricha farmasevtik sanoatning yutuqlariga qaramasdan, bugungi kunda uy hayvonlaridagi bo'g'im patologiyasini davolash muammosi ancha dolzarb bo'lib qolmoqda. Muallifning ma'lumotiga ko'ra sinovit deb bo'g'im kapsulasining yallig'lanishi tushuniladi. Etiologik omillarga bo'g'imlaming yopiq va ochiq shikastlari kiradi. Organizmga patogen omillarning ta'sir etishi va jarohatning turiga ko'ra shikastlar turlicha bo'lishi mumkin.

[6; 96 c.] ma'lumotlariga ko'ra, hayotiy muhim to'qima va a'zolarining shikastlanishi ko'p mikkorda qon yo'qotish bilan rivojlanib, o'tkir holda kechadigan shikastlar hayvonning hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin. To'qimalarning keng ko'lamdagi yopiq shikastlanishlari va natijada to'qimalarning parchalanishidan hosil bo'lgan zaxarli moddalaming qonga jadal so'rilishida, hayvonlarning travmatik

zaharlanishi vujudga keladi. Mexanik omillarning o'ta kuchli ta'siri natijasida hosil bo'ladigan travmalar oqibatida, jigar, oshqozon, ichaklar, siydik pufagi va boshqa a'zolar yorilib ketishi mumkin, xamda shikastlangan to'qimalarga patogen mikroorganizmlarning tushishi natijasida, ko'plab hollarda shikastlarning asorati sifatida abscess, flegmonalar, nekrobakterioz, aktinomikoz kabi patologik jarayonlar rivojlanishining havfi mavjud. Shikastlangan hayvonlarda aksariyat hollarda falaj va yarim falaj, atrofiyalar, nerv to'qimalarining nekrozi kabi turli xildagi nervotrofik buzilishlar vujudga kelib, hayvon umumiy holatining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Bo'g'imlarning jarohatlanishlari kechish darajasi, davolash jarayonining murakkabligi va oqibatining turli xilda bo'lishiga qarab, bir-biridan farqlanadi [5; 4-5 c].

[3; 46 c.)] mualliflarning ta'kidlashicha hayvonlarni guruh usulida boqishda dastlabki rivojlanish bosqichlaridagi artritlar kam aniqlanadi. Ularni barvaqt aniqlashning imkoni bo'lganda, davolanishi juda qiyin hisoblangan bo'g'imlar va to'qimalarda surunkali kechadigan yiringli yallig'lanishlarning oldini olishga imkon tug'ilar edi, odatda bunday turdagi yallig'lanishlar kam hollarda samarali davolanadi.

[2; 15 c.] ta'kidlashicha, bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlari turli sabablarga ko'ra, masalan, sanchilgan jarohatlar, bo'g'im atrofidagi to'qimalarning mexanik shikastlanishi, periartikulyar to'qimalar, sinovial xalta shilliq pardasi va pay qinlari orqali yiringli yallig'lanish jarayonlarining bo'g'im to'qimalariga o'tishi, shuningdek plevrit, endometrit, paraartrit kabi kasalliklarda metastatik yo'l bilan qo'zg'atuvchilarning o'tishi oqibatida rivojlanadi.

Muallifning ma'lumotlari bo'yicha, bo'g'imlarning yallig'lanishlarida stafilokokklar va streptokokklarning ustunligi xarakterlanuvchi aralash mikrofloralar, shuningdek, ichak tayoqchalari, protey va ko'k yiring tayoqchalari ajratiladi [8; 577-584 pp]. Boshqa olimlarning ta'kidlashlaricha aseptik artrit va asosan artrozlarda oyoqlardagi og'riq kuchliligini aniqlash uchun ularni bo'g'implarda bukish va birinchi ikki qadamdan so'ng oqsash darajasini belgilash tizimini qo'llash kerak. O'rtacha og'riq kuchliligi otning to'rtala oyoqlarida aniqlanadi. Otlar umumiy og'riq va oyoqlarni harakatlanishda hosil bo'ladigan og'riqqa tekshiriladi. Har bir otda og'riq darajasining umumiy baholanishi bir xil sharoitda va tartibda, qadamlatib yurgizish va choptirishda davolashdan avval va keyin o'tkaziladi. Oyoqlardagi ya'ni bo'g'implardagi og'riqni hayvonni qadamlatib yurgizish va choptirishdan so'ng joyida majburiy harakatlantirib tekshiradilar, buning uchun zararlangan bo'g'im 60 soniya davomida chuqur bukilgan holatda ushlab turiladi so'ng oyoq yerga qo'yilib ot choptiriladi. Bukishga o'tkazilgan test klinik ma'lumotlar bilan taqqoslanadi [7; 432 pp.]. lar ma'lumotiga ko'ra refleksoterapiyaning barcha usullari biologik aktiv nuqtalarga ta'sir etishga yo'naltiriladi.

Biologik aktiv nuqtalar zonalar atrof to'qimalarga qaraganda qon bilan nisbatan yaxshiroq ta'minlanishi va innervasiya qilinishi aniqlangan. Undan tashqari, ular biologik aktiv moddalar deposi bo'lib, xujayralarda to'planadi. Biologik aktiv nuqtalar morfologik xususiyatlarga ega bo'lib qolmay, atrof to'qimalardan elektrik parametrlari bilan ham ajralib turadi. Biologik aktiv nuqtalar past elektrik qarshilikka va katta elektr o'tkazuvchanlikka ega [4; 50 c.]. Boshqa olimning ta'kidlashicha,

qandaydir kasallik mavjudligida elektrik potentsiallarning o'zgarishi qo'shimcha diagnostik kriteriy bo'lib xizmat qilishi aniqlangan [1; 532 c].

**Xulosa:** 1. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, otlarda bo'g'im kasalliklarining epizootologiyasi va etiopatogenezi keng o'rganilgan, ammo kasallikning patomorfologiyasi va patogistologiyasi bo'yicha yetarli darajada ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan.

2. Taxlil qilingan adabiyotlar manbalariga ko'ra O'zbekistonda otlarda barmoq bo'g'im kasalliklarining patanatomiya, bo'g'imlar, uning atrofidagi to'qima va hujayralardagi patomorfologik o'zgarishlar umuman o'rganilmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андреевский, И.С. Книга о болезнях лошадей / И.С. Андреевский. - М.: Либроком, 2012. - 532 с.

2. Борхунова, Е.Н. Морфофункциональные особенности сухожилий и костносухожильных соединений пальца грудной конечности у рысистых лошадей: автореф. дис. канд. биол. наук / Е.Н. Борхунова. - М.: МГАВМиБ, 2000. 15 с.

3. Калашник И.А., Логвинов Д.Д., Смирнов С.И. и др. Незаразные болезни лошадей. М.; Агропромиздат, 1990. 46 с.

4. Петров В.А., Руководство по электропунктурной рефлексотерапии собак и кошек [Текст] / В.А. Петров, П.П. Герилович, Р.В. Петров. -Сумы: Казаский вал, 2000. - 50 с.

5. Родин, И.А. К совершенствованию лечебных мероприятий при травматизме у лошадей. / И.А. Родин [и др.] // Ветеринария Кубани, 2007. – N 6. – С. 4-5.

6. Слесаренко Н.А., Борхунова Е.Н., Алекнорова В.Г. Морфофункциональные характеристики сухожилий и костно-сухожильных соединений пальца у рысистых лошадей: Учебное пособие. – СПб.: Издательство «Лань», 2005. – 96 с.

7. Derek C. Knottenbelt, Reg R. Pascoe Diseases and Disorders of the Horse, 2003 – 432 pp.

8. Gupta R.C., Canerdy T.D., Skaggs P., and etc. Jurnal veterinary pharmacology and therapy. Tom 32, Vbipusk 6, 2009, 577-584 pp

9. Жукова, М.В. Ветеринария: Тендинит. Найти и обезвредить. Часть 2. Методы и эффективность лечения / М.В. Жукова, М. Савицкая // Мустанг. 2008. - №6 (74).

10. Вогел К. Ваша лошадь. Полное практическое руководство по уходу за лошадьми / К. Вогел. - М.: БММ, 2003. - 192 с.

11. Рыбин, Е.В. Использование диметилсульфоксида при лечении патологии сухожилий у лошадей: автореф. дис. канд. вет. наук / Е.В.Рыбин. - СПб.: СПбГАВМ, 2002. - 18 с.

12. Стекольников А.А. Содержание, кормление и болезни лошадей: Учебное пособие / Щербаков Г. Г. Андреев Г. М. и др. – СПб.: Издательство «Лань» 2007. 624с.